

О'QUVCHILARNING FAOLIYATINI OSHIRISH UCHUN О'QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH

Andijon Davlat Chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
212-guruh talabasi
Solijonova Rayyona Xakimjon qizi

Аннотация: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish hamda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning samarali pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Калит so'zlar: Interaktiv mashg'ulot, aqliy hujum, keys-stadi, ishbilarmonlik o'yinlari, kichik guruhlar getrogen guruh, spiker.

Аннотация: В данной статье анализируется роль интерактивных методов в повышении познавательной активности учащихся в современной системе образования, формировании их навыков самостоятельного мышления. Также разработаны эффективные педагогические механизмы интеграции теоретических знаний с практическими навыками в учебном процессе и реализации творческого потенциала учащихся.

Ключевые слова: Интерактивное занятие, мозговой штурм, кейс-стади, деловые игры, малые группы, гетерогенная группа, спикер.

Abstract: This article analyzes the role of interactive methods in increasing the cognitive activity of students in the modern education system and forming their independent thinking skills. Furthermore, effective pedagogical mechanisms for

integrating theoretical knowledge with practical skills in the educational process and realizing the creative potential of students have been developed.

Keywords: Interactive session, brainstorming, case study, business games, small groups, heterogeneous group, speaker.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlarning tub mohiyati o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'lim sifatini oshirish uchun nafaqat dars mazmunini, balki uni yetkazib berish usullarini ham takomillashtirish lozim. An'anaviy darslarda o'quvchi ko'pincha passiv tinglovchi rovida bo'ladi, bu esa axborotning tez unutilishiga va o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi so'nishiga olib keladi.

Интерактив методлар — bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan, bilimni birgalikda izlash va kashf etishga yo'naltirilgan jarayondir. Bunda ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida o'zaro faol aloqaga tayanilib, o'quvchini bilimni mustaqil izlash va tahlil qilishga yo'naltiruvchi hamda dars jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini qaror toptirish orqali yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlovchi zamonaviy didaktik yondashuvdir.

Bilimni egallab, o'zlashtirib olish uchun maqsad aniq bo'lishi, motiv hosil qilish bilan birga o'rganuvchi o'quv materialini o'zlashtirishiga imkon yaratadigan o'quv-biluv harakatlarini ham bajarishi zarur, ya'ni o'quvchining o'zi faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak. Muallimning vazifasi — bilim olishning qulay texnologiyasi, shakl-usulini tanlab, o'quvchiga uni qanday bajarish yo'llarini ko'rsatish va o'quvchi faoliyatini boshqarishdan iborat.[1;81] Bunday faoliyatni olib borishda turli xil interaktiv usullardan foydalanish esa dars jarayonini yanada qiziqarli qiladi va o'quvchini aktiv dars istirokchisi bo'lishga undaydi. O'quvchi o'zi mustaqil darslardan tashqari bilim olishga intiladi, uy vazifalarini o'zlashtirishga ishtiyoq, intilish uyg'otadi, o'quvchilarda darsni anglash va tushunish dars jarayonidan qoniqishga sabab bo'ladi.

О'qitishning interfaol(aktiv)ligi – o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro tasir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Интерактив mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.[2;22]

Интерактив metodlar shunchaki “o'yin” emas, balki o'quvchilarni mantiqiy fiklashga va jamoada ishlashga undaydigan ilmiy asoslangan usullardir. Har bir metodning o'z o'rnini va ta'limiy maqsadi bor.

Интерактив metodlarning turlari:

1. Aqliy hujum (Brainstorming)- bu metod o'quvchilardan biror maummo bo'yicha a imkon qadar ko'p g'oyalarni qisqa vaqt ichida yig'ishni nazarda tutadi.

Aqliy hujum usulida o'quv mashg'ulotini tashkil etishning asosiy maqsadi — talabalar shu mavzu bo'yicha nimalarni bilishlarini aniqlash va guruh a'zolaridan qisqa vaqt ichida ko'proq g'oyalarni olishdan iborat. O'quv mashg'uloti jarayonida talabalar tomonidan ta'limiy muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif etilishi, mavzu yuzasidan fikr-mulohaza bildirish uchun imkon yaratilishidir. Bunday ta'lim jarayonida guruh a'zolari bir necha daqiqa davomida mavzu yuzasidan munozara qilib, xilma-xil fikrlarni bayon qiladilar, fikrlar, takliflar doskaga, yon

daftarlariga yozib boriladi. Mulohazalar qanchalik noaniq, bema'ni yoki bahsli bo'lishidan qat'i nazar yozilaveradi. Bu paytda taqiqlar bo'lmaydi va hech qanday baho berilmaydi. Qatnashchilarga takliflarni tahlil qilish, fikr birdirish uchun

mashg'ulot oxirida imkon beriladi. Agar faollik sust bo'lsa, to'g'riroq fikrlar chiqavermasa, professor-o'qituvchi o'z mulohazalarini aytib, ulardan ba'zilarini yozib olishni taklif etadi. Bu usul talabaning o'z nuqtai nazarini himoya qilishi,

isbotlashi, har qanday vaziyatda ham eng ma'qul yechimni topishga; muloqot olib borishga, aytilgan fikrning to'g'riligiga opponentlarni ishontirishga o'rgatadi. Uning tarbiyaviy ahamiti shundaki, talabalarni yakdillikka undaydi, har bir

qatnashchiga uning taklifi yozib olishga arzigulik ekanligini his qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quv muammosi yechimini topishni birgalikda bajariladigan ishga aylantiradi.[1;84].

2. Keys-stadi(Case study)metodi- O'quvchilarga real hayotda sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyat (keys) beriladi. Keys-stadi muammoga nisbatan yechim talab qiladigan texnologiyadir. Keys- stadi yozishda birinchi esda tutish lozim bo'lgan narsa bu uning muammoga ega bo'lishidir. Keys-stadi texnologiyasini qo'llashda yetarlicha ma'lumotlar keltirilish o'rinlidir, bu uni o'rganuvchilar uchun juda muhimdir. Ma'lumotlarning ko'pligi vaziyatni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Qiziqarli keys-stadi yozish detektiv hikoya yozishga o'xshab ketadi, bu orqali talabalarni vaziyatga qiziqtirib, fikrlashga undash mumkin. Mukammal tuzilgan keys- stadi bu faqatgina tavsiflashdan iborat bo'lmaydi.Keys-stadi bilan tanishayotganda talaba o'zini huddi keysning yozuvchisidek his qilib, sodir bo'layotgan voqealarni o'z boshidan o'takazayotgandek harakat qilishi kerak. Shundagina keys samarali faoliyatga aylana oladi.[3;885].

3. Rolli o'yinlar (ishchanlik yoki ishbilarmonlik o'yinlari)- bunday o'yinlar muammoli topshiriqlaming bir ko'rinishidir. Sahnalashtirish va obrazli chiqishlar bunday mashg'ulotlaming asosiy belgisidir. Ishbilarmonlik, bilimdonlik, topqirlik, quvnoqlik, hozijarvoblik, ijodkorlik. artistizm, ishchanlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlarini namoyish qilishga keng imkon beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining salohiyatiga mos vazifa topshirishi juda muhimdir. Birinchi va ikkinchi darajali ishtirokchilar bo'lmasligini ta'minlash ham talab qilinadi. O'quv mashg'uloti hayotdagi aniq vaziyatga ko'proq yaqinlashadi.[4;130].

4. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi- Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'ildi boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Kichik guruhlarda ishlash metodini qo'llanish usuli;

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallangan bo'lishi kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma xujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, auditoriyadagi o'quvchilar soni, o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda ozaro harakatiga bogliq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash oquvchilar ortasida va -zifalarni aniq taqsimlashga tayanadi (misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlariga ajratish, xoxish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yol-yoriqlar korsatish. Oquvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va xajm jixatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi. Qo'llab -quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'lsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlariga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib boriladi. Muhimi, guruhning yechimining asoslanishini aniqlashtirib olinishida.[2;36].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keys-stadi, aqliy hujum va kichik guruhlarda ishlash kabi texnologiyalar o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Pedagogik mahorat va to'g'ri tanlangan texnologiyalar uyg'unligi o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, bu esa o'z navbatida ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, interaktiv mashg'ulotlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish davr talabi bo'lib, u barkamol avlodni tarbiyalashda yuqori sifat va samaradorlikni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar O'quv qo'llanma.-Nafas 2000
2. Saidova G.M. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida interaktiv metodlardan foydalanish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Nukus: Nukus DPI
3. Tolibov S.G'. Keys-stadi texnologiyasining o'quv didaktik vazifalari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – № 5. – B. 882-887.
4. Omonov H.T., Xo'jayev N.H., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. – 240 b.